MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Asqarova Dilafruz Ibroximovna– Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: dilafruzaskarova804@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi zamon ta’limida maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish - ustuvor yo‘nalishdir. Ushbu mavzu doirasida emotsional intellektni shakllantirishning nazariy-metodologik poydevorini qurish, uning ijtimoiy-tarbiyaviy jarayondagi o‘rnini tadqiq etish va bolalarning yosh xususiyatlariga xos psixologik hamda pedagogik jihatlarni ilmiy manbalar negizida atroflicha tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit: Maktabgacha ta’lim, pedagogik-psixologik ta’sir, faol ta’lim usullari, o‘zaro hamkorlikka asoslangan metodlar, innovatsion vositalar, raqamli va noan’anaviy ta’lim uslublari, qobilyat, rivojlanish.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING EMOTIONAL INTELLIGENCE IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract: Developing emotional intelligence in preschool-aged children is a priority in modern education. Within this context, it is crucial to establish the theoretical-methodological foundations for fostering emotional intelligence, examine its role in the social-educational process, and conduct a comprehensive analysis—based on scientific sources—of the psychological and pedagogical aspects specific to children's developmental stages.

Keywords: Preschool education, pedagogical-psychological influence, active learning methods, collaborative methods, innovative tools, digital and non-traditional educational approaches, aptitude, development.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: Развитие эмоционального интеллекта у детей дошкольного возраста является приоритетной задачей современного образования. В связи с этим крайне важно определить теоретико-методологические основы формирования эмоционального интеллекта, рассмотреть его роль в социально-образовательном процессе, а также провести всесторонний анализ (на основе

научных источников) психолого-педагогических аспектов, характерных для различных этапов развития ребенка.

Ключевые слова: дошкольное образование, психолого-педагогическое воздействие, методы активного обучения, методы сотрудничества, инновационные инструменты, цифровые и нетрадиционные образовательные подходы, способности, развитие.

Kirish. Mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim tizimi mustaqillik yillaridan so‗ng bosqichma-bosqich isloh qilindi, ammo so‗nggi yillarda ushbu yo‗nalishga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qarala boshlandi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori va 2019-yilda “Maktabgacha ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinganligi sohada sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi[1].

Mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish ustuvor yo‗nalish sifatida belgilanib, zarur shart-sharoitlar yaratishga alohida ahamiyat qaratilgan.

Maktabgacha ta‘lim bu bolalarning rivojlanishi va ijtimoiylashishi uchun juda muhim bosqichdir. Respublikamizda maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish hamda maktabgacha ta‘lim tizimi uchun kasbiy salohiyatli pedagog kadrlarni tayyorlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Maktabgacha ta‘lim tizimiga soha tarbiyachilarini oliy ma‘lumotli kadrlar etib tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. [2]

Innovatsion rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda maktabgacha yoshdagi bolalarda imotsional intellekt sifatlarni shakllantirishda ta‘lim va tarbiya samaradorligiga yo‘naltirilgan ilg‘or yondashuvlar va texnologiyalarni tatbiq etish amaliyoti keng joriy etilgan. Shu nuqtai nazardan rivojlangan davlatlarda ta‘lim jarayoniga innovatsion yondashuvni ta‘minlash bilan bir qatorda rivojlantiruvchi sohalar kompetensiyalariga integratsion yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoni samaradorligini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellekt (EI)ni rivojlantirish bugungi ta’limda ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning hissiy anglash, boshqarish, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalari 3–6 yoshda shakllanadi va bu jarayonni strukturali pedagogik yondashuv orqali maksimal darajada qo‘llab-quvvatlash mumkin. Ya’ni, ta’lim jarayonini qat’iy tartibga solingan, mantiqan izchil va o‘zaro bog‘langan tarkibiy elementlar asosida tashkil etish lozim. Mazkur integratsiya asosida o‘quv jarayoni tasodifiy emas, balki oldindan belgilangan maqsadlar, o‘quv natijalari, mazmun, metodlar, vositalar va baholash mezonlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik asosida loyihalanadi. Ushbu yondashuv orqali maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limni tizimli, o‘lchab bo‘ladigan, prognoz qilinadigan va takrorlanadigan qilib beradi. Unda o‘qituvchi har bir bosqichning

vazifalarini aniq rejalashtiradi, o‘quv faoliyati ketma-ketlikka ega bo‘ladi, tarbiyalanuvchilarning kompetensiyalarini izchil shakllantirish uchun zarur bo‘lgan didaktik birliklar bosqichma-bosqich rivojlanadi. Mazkur yondashuv ta’lim sifatini boshqarishda ham qo‘llanadi, chunki u maqsad–jarayon–natija uchligini yagona tizimda ko‘rib, pedagogik faoliyatni aniq loyixa asosida tashkil etish orqali samaradorlikni oshiradi[3].

Zamonaviy pedagogik izlanishlar ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida emotsional intellektni yuksaltirish bir qator innovatsion metodlar orqali yuqori samaradorlikka ega bo‘ladi. Bular qatoriga dramatik sahnalashtirish va rolli o‘yinlar, emotsional belgilar kartochkalari, multimodal o‘yin texnikalari, hissiy ifodaga oid mashqlar, raqamli hikoya yaratish hamda o‘yinli muammoli vaziyatlarni hal etish kiradi. Masalan, sahnalashtirilgan o‘yinlar bolalarga boshqalar his-tuyg‘ularini anglashga, empatiya sifatlarini rivojlantirishga va hamkorlik ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, mazkur metodlar bolalarning ichki kechinmalarini ifodalash, tartibga solish va boshqarish malakalarini shakllantirib, maktabgacha ta’limdagi asosiy pedagogik natijalardan birini kafolatlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni shakllantirishning nazariy-metodologik poydevorining shakllanishi ijtimoiy-pedagogik masala sifatidagi mohiyati, shuningdek, bolalarning yoshiga xos psixologik-pedagogik xususiyatlari ilmiy manbalar asosida tahlil etiladi. Inson shaxsidagi barcha xislatlar dinamik xarakterga ega bo‘lib, izchil rivojlanish orqali namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchilarning fikricha, biologik instinktlarning o‘rnini ijtimoiy rivojlanish bosqichlari egallaydi, biroq ayrim kattalar ham tabiiy emotsional intellektni saqlab qolishi natijasida munosabatlarda disbalans yuzaga kelishi mumkin. Bu fikr L.S. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlarda tasdiqlanadi. Unga ko‘ra, qabul qilinmaydigan instinktiv impulslarni ijtimoiy maqbul bo‘lgan yuqori faoliyat shakllariga aylantirish zarur[7].

Xorij tajribalarida tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga alohida e’tibor beriladi. Masalan, Finlyandiya ta’lim tizimida tenglikni ta’minlash ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi. Fin tadqiqotchilari ta’kidlaganidek, bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga olish va rivojlanishga yo‘naltirilgan integrativ yondashuvlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, o‘quv jarayonida innovatsion metodlardan unumli foydalanish orqali emotsional intellektni rivojlantirish muhim deb hisoblanadi.

Yaponiya olimlari ta’limning amaliy jihatlariga ustuvor ahamiyat qaratadilar. Ularning ilmiy izlanishlari o‘yin faoliyati va ijodiy mashg‘ulotlar orqali bolalarning emotsional intellektni rivojlantirishning ahamiyatini ko‘rsatadi.

AQSHda tarbiyalanuvchilarni emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuv keng qo‘llanilib, ta’lim sifati tarbiyalanuvchilarning kommunikativ qobiliyatlari, bolalar ehtiyojlarini chuqur anglash va ularni rivojlantirishga asoslangan pedagogik metodlarni qo‘llay olishi bilan belgilanadi.

Xitoy maktabgacha ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilgan. Bolalar rivojlanishini monitoring qilish, o‘quv jarayoniga interaktiv texnologiyalarni tatbiq etish bo‘yicha olib borilgan izlanishlar bu

yo‘nalishning keng imkoniyatlarini ochib beradi. Raqamli platformalardan foydalanish bolalarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishi haqidagi xulosalar xitoylik tadqiqotchilar tomonidan tasdiqlangan.

Muhokama va natija. Roli o‘yinlar va syujetli mashg‘ulotlar maktabgacha yosh bolalarning muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ularning ijtimoiy vaziyatlarga moslashish qobiliyatini oshiradi. Hissiy kartochkalar va “his qil, so‘zla, ifodala” mashqlari bolalarning emotsional lug‘atini boyitadi va nutq ijodkorligini kuchaytiradi. Zamonaviy raqamli vositalar (masalan, raqamli hikoyalar) bolalarning ijodiy va hissiy tajribalarini boyitadi, ular orqali bolalar turli vaziyatlarda o‘z hissiyotlarini tanib, ifodalashni o‘rganadi.

Maktabgacha ta’limda emotsional intellektni rivojlantirishning samarali strategiyasi interfaol va muammoli o‘yinlarni tizimli ravishda integratsiya qilishdan iborat. Haftada 3–4 marta o‘tkaziladigan o‘yin mashg‘ulotlari bolalarning hissiy barqarorligi, empatiya va o‘zini tuta bilish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, ochiq savollar va ijtimoiy interaktiv vazifalar bolalarda divergent fikrlash va muammolarga noodatiy yondashuvni rag‘batlantiradi, bu esa ularning ijodiy va hissiy rivojlanishini mustahkamlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish pedagogik jarayonda quyidagi tamoyillar asosida tashkil etilishi tavsiya etiladi: individual yondashuv, o‘yin va faoliyatga asoslangan metodlar, ijtimoiy muhitni boyitish va muntazam pedagogik qo‘llab-quvvatlash. Bu yondashuv bolalarning emotsional intellekti nafaqat rivojlanadi, balki maktabga tayyorgarlik va ijtimoiy moslashuvni ham oshiradi.

Xulosa. Yuqoridagi ilmiy tahlillar shuni anglatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellekt va liderlik sifatlarini shakllantirish faqat oddiy pedagogik faoliyat bilan cheklanmaydi; u chuqur psixologik tushunchalarga, pedagogik mahoratga, interfaol metodlardan foydalanishga, raqamli vositalarni integratsiya qilishga va tarbiyachilarning kasbiy kompetentligiga bevosita bog‘liq. Shuningdek, bolalarning tabiiy ehtiyojlari, yosh xususiyatlari va individualligi inobatga olingan taqdirda, qo‘llangan metodlarning samaradorligi bir necha barobar ortadi.

Emotsional intellektni, ijtimoiy muloqotni va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama shakllanishi, ularning keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorgarligi hamda shaxs sifatida kamol topishi uchun mustahkam psixologik-pedagogik poydevor yaratadi. Shu asosda ta’kidlash mumkinki, mazkur ilmiy yo‘nalishda ishlab chiqilgan metodlar, xorijiy tajribalar va psixologik qarashlar uyg‘unligi maktabgacha ta’limning sifatini tubdan oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va tarbiyachilar kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beradi.

Pedagogik jihatdan maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish o‘yin metodlari, ijtimoiy interaktiv mashqlar va muntazam pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi lozim. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur metodlar bolalarning hissiy anglash, boshqarish, empatiya va muloqot ko‘nikmalarini barqaror shakllantirishda eng samarali vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta‘lim to‘g‘risida”gi 16.12.2019 yildagi O‘RQ-595-son Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori.

3. Jumabekova, A. (2020). Emotsional intellektni rivojlantirishda SEL dasturlari tajribasi. Kazakh Journal of Psychology, 5(3), 101–110.

4. Mirziyoyeva, Sh. (2023). Raqamli texnologiyalar yordamida bolalarda emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish. Innovatsion Pedagogika, 2(1), 75–83.

5. OECD. (2023). Skills for Social Progress: The Power of Social and Emotional Skills. Paris: OECD Publishing.

6. Tursunova, M. (2022). Milliy qadriyatlar asosida emotsional intellektni rivojlantirish. Uzbek Journal of Educational Studies, 3(4), 88–95.

7. Abduxamidova D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish diagnostikasi: metodlar va natijalar. Maktabgacha va maktab ta’limi 2025/10-son